

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 4 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 4

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 4



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-4>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)


PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Tajibayeva Latofat Farxodovna TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING ADABIYOTDA AKS ETISHI.....	5
2. Syuy Myao КРАТКОЕ РАССМОТРЕНИЕ ЯЗЫКОВОЙ И РИТОРИЧЕСКОЙ ЭСТЕТИКИ В «ЗОЛОТОЙ ЦЕПИ» ЧЖАН АЙЛИН.....	9
3. Najmiyeva Po‘lotoy Tilavmurodovna O‘ZBEK VA YAPON TILLARIDA KELISHIK QO‘SHIMCHALARI VA YAPON TILIDAGI KELISHIK PARTIKULALARINING MORFOLOGIK HAMDA SINTAKTIK MOHIYATI.....	14
4. Lutfilloeva Faxriniso Maxmudovna ЯПОН МИЛЛИЙ МАФКУРАСИДА ТИЛ ОМИЛИ ВА УНИНГ ИДЕОЛОГИК КОНЦЕПЦИЯСИ.....	20
5. Shaniyazov Jenisbay Ungarbaevich TURKIY VA INGLIZ TILLARIGA MUSHTARAK SO‘ZLAR HAQIDA.....	25
6. Ergasheva Tursunoy Abdukaюmovna ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИФИ ВА SALES TAX АТАМАЛАРИНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ.....	29
7. Xolikov Bahodir DEV O‘ZBEK MIFOLOGIYASI DOMINANT OBRAZALARIDAN BIRI SIFATIDA.....	34
8. Nilufar Abduraxmonova, Mahliyo Eshmamatova PARALLEL KORPUS ASOSIDA RAVISHDOSHLI BIRIKMALARNING SEMANTIKASI VA STRUKTUR MODELLARI TADQIQI.....	40
9. Hasanova Sevinch Hotam qizi THE MULTILEVEL STRUCTURE OF THE LANGUAGE SYSTEM AND ITS CONCEPTUAL INTERPRETATION IN TRANSLATION THEORY.....	52
10. Namazova Manzura Urakovna O‘ZBEK ADABIYOTIDA PSIXOLOGIZM (O‘ZBEK ROMANLARI ASOSIDA).....	58
11. Mavloнова Наргиза Алишеровна ПРИНЦИПЫ ОТБОРА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СООТВЕТСТВИЙ И ИДЕОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ АНГЛИЙСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ И ИХ СООТВЕТСТВИЙ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	63
12. Ismailov Anvar Rustamovich CHET TILI O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINING MOHIYATI.....	70
13. Achilova Zuxra Qurbonovna “MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTLARIDA AVAZXON BILAN BOG‘LIQ SAFAR MOTIVI VA VAQT KULTI.....	75
14. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Xoljurayeva Yulduz Sobir qizi O‘ZBEK TILIDAGI NORP OBYEKTLARINI BIOES ANNOTATSIYA SXEMASI ASOSIDA ANIQLASH.....	88
15. Kim Татьяна Сергеевна ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ НОВОСТНОГО ТЕКСТА КОРЕЙСКИХ ГАЗЕТ.....	96
16. Laziza Djhiyanbayeva РАНГ КОМПОНЕНТЛИ ТУРФУН БИРИКМАЛАР.....	102
17. Laziza Dzhiiyanbayeva SOCIAL CHARACTERISTICS OF COLOR SEMANTICS.....	108
18. Makhammatkulova Diyora Nodirovna, Makhammatkulova Iroda Nodirovna, Rahimov Nodir Makhammatkulovich DIGITAL FOOTPRINT AS A PHENOMENON OF MODERN EDUCATION.....	114

19. Boboyev Ulash Ne'matovich OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TILINING LEKSIK IMKONIYATLARI (GAZETA TILI MISOLIDA).....	120
20. Файзуллаева Мохинорабегим Бехзодбек кизи СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕЧЕВЫХ АКТОВ ИЗВИНЕНИЯ В КИТАЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	124
21. Rashidova Muxlisa, Sobirova Madina Mahmudjon qizi UNIVERSAL DEPENDENCIES MODELI DOIRASIDA SINTAKTIK ANNOTATSIYALANGAN KORPUSLARNI TAHLIL QILISH.....	129
22. Ишниязова Шахноз Ашировна МИФОЛОГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ТОТЕМИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ XX ВЕКА: К ПРОБЛЕМЕ ТИПОЛОГИЧЕСКОЙ БЛИЗОСТИ С ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА.....	135
23. Тошбекова Дилором Исмоиловна СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ИРОНИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	143
24. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	149
25. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	154
26. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	161
27. Hakimov Muxamadali Rafikovich ITALYAN TILIDA "ERKAKLIK" GENDER TUSHUNCHASINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAHLIL.....	170
28. Lola Ibragimova INGLIZ VA O'ZBEK FRAZELOGIYASI: STRUKTUR-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR (SOG'LIQ-SALOMATLIK MAQOLLARI MISOLIDA).....	176
29. Nazirova Munisa Mirzakamalovna MODAL BIRLIKLARNING LINGVISTIK VA PRAGMATIK ASOSLARI.....	182
30. Sharipov Raufjon Elmurod o'g'li AKADEMIK G'ANIJON ABDURAHMONOVNING "TARIXIY SINTAKSIS" ASARIDA QO'SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	186
31. N.Z.Abduraxmonova, Salomat Otamurodova MASHINA TARJIMASI VA LINGVISTIK JARAYONLAR.....	191
32. Davlatova Hulkaroy Uktamovna BOLALARDA TIL VA TAFAKKURNING SHAKLLANISHI: LINGVOKOGNITIV YONDASHUVDA NAMOYON BO'LISHI.....	198



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

UDK 398.22:82-343

ORCID: 0009-0004-3307-111X


Achilova Zuxra Qurbonovna

Qarshi davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti

kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: achilovaf@gmail.com

“MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTLARIDA AVAZXON BILAN BOG‘LIQ SAFAR MOTIVI VA VAQT KULTI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19322555>

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodining yirik namunalardan biri hisoblangan “Malla savdogar” dostoni variantlarida Avazxon obrazi bilan bevosita bog‘liq safar motivi hamda vaqt kulti masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida safar motivining syujet rivojidadagi funksional o‘rni, qahramon xarakterini ochishdagi ahamiyati hamda voqealar ketma-ketligini harakatga keltiruvchi asosiy badiiy vosita sifatidagi roli aniqlanadi. Shuningdek, doston variantlarida vaqt tushunchasining mifologik va epik talqini, uning marosimiy, ramziy hamda g‘oyaviy mazmuni ochib beriladi. Maqolada safar motivi va vaqt kulti tushunchalari folklorshunoslik va adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalar asosida izohlanib, Avazxon obrazi misolida ularning o‘zaro uyg‘unligi va badiiy-estetik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: doston, Avazxon, safar, yo‘l, yo‘lovchi, manzil, mif, tasavvuf, vaqt, ramz, kult, zamon, Asr surasi, maqol, hadis.

Ачилова Зухра Курбоновна

независимый исследователь

кафедры Узбекского языка и литературы

Каршинского государственного университета

e-mail: achilovaf@gmail.com

МОТИВ ПУТЕШЕСТВИЯ И КУЛЬТ ВРЕМЕНИ, СВЯЗАННЫЕ С ОБРАЗОМ АВАЗХАНА, В ВАРИАНТАХ ЭПОСА “МАЛЛА САВДОГАР”

АННОТАЦИЯ

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются мотив путешествия и культ времени, непосредственно связанные с образом Авазхана, в различных вариантах эпоса «Малла савдогар», являющегося одним из крупных образцов устного народного творчества. В ходе исследования определяется функциональная роль мотива путешествия в развитии сюжета, его значение в раскрытии характера главного героя, а также его роль как основного художественного средства, приводящего в движение последовательность событий. Кроме того, в вариантах эпоса раскрывается мифологическое и эпическое осмысление категории времени, его ритуально-символическое и идейное

содержание. В статье понятия мотива путешествия и культа времени интерпретируются на основе научных источников по фольклористике и литературоведению, а на примере образа Авазхана обосновывается их взаимосвязь и художественно-эстетическая значимость.

Ключевые слова: дастан (эпос), Авазхон, путешествие, путь, путник, место назначения, миф, суфизм, время, символ, культ, эпоха, сура «Аль-Аср», пословица, хадис.

Achilova Zukhra Kurbonovna

Independent Researcher

Department of Uzbek Language and Literature

Karshi State University

e-mail: achilovaf@gmail.com

THE TRAVEL MOTIF AND THE CULT OF TIME ASSOCIATED WITH THE IMAGE OF AVAZKHAN IN THE VARIANTS OF THE EPIC “MALLA SAVDOGAR”

ABSTRACT

This article provides a scientific and theoretical analysis of the travel motif and the cult of time directly associated with the image of Avazkhan in various versions of the epic “*Malla Savdogar*”, which is considered one of the major examples of oral folk literature. The study identifies the functional role of the travel motif in the development of the plot, its significance in revealing the character of the protagonist, and its function as a key artistic device that drives the sequence of events. Furthermore, the article examines the mythological and epic interpretations of the concept of time in the epic variants, highlighting its ritual, symbolic, and ideological meanings. Based on scholarly sources in folklore studies and literary criticism, the notions of the travel motif and the cult of time are elucidated, and their interrelation as well as artistic and aesthetic significance are substantiated through the image of Avazkhan.

Keywords: epic, Avazkhan, journey, road, traveler, destination, myth, Sufism, time, symbol, cult, era, Surah al-‘Asr, proverb, hadith.

KIRISH. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida dostonlar xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarini va mifopoetik tafakkurini o‘zida mujassam etgan muhim adabiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Bu jihatdan “Malla savdogar” dostoni syujet boyligi, obrazlar tizimi va ramziy motivlarning rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Dostonda markaziy qahramonlardan biri bo‘lgan Avazxon obrazi orqali safar motivi va vaqt bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar badiiy ifodasini topgan bo‘lib, ushbu motivlar doston syujetining harakatlantiruvchi asosiy unsurlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgacha folklorshunoslikda “Malla savdogar” dostoni variantlari syujeti, obrazlar tizimi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari hamda ayrim mifologik motivlari muayyan darajada o‘rganilgan. Jumladan, safar motivi ko‘pincha qahramonning sinovlardan o‘tishi, ijtimoiy makonlarni bosib o‘tishi va ma’naviy yetilish jarayoni bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Shuningdek, vaqt tushunchasi dostonda voqealar ketma-ketligi va qahramon taqdirining belgilanishi bilan aloqador jihatlarda yoritilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda Avazxon obrazi bilan bevosita bog‘liq safar motivining ramziy-ma’naviy qatlamlari, uning doston variantlarida namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda vaqt kultining mifopoetik mazmuni tizimli ravishda chuqur tadqiq etilmagan. Ayniqsa, vaqtning muqaddaslik, taqdir, davriylik va sinov omili sifatida talqin qilinishi, safar motivi bilan uzviy aloqada shakllanishi masalalari yetarli darajada o‘rganilmay qolmoqda. Bu holat mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Mazkur tadqiqotning **asosiy maqsadi** “Malla savdogar” dostoni variantlarida Avazxon obrazi bilan bog‘liq safar motivi va vaqt kultining badiiy, mifologik hamda semantik xususiyatlarini aniqlash va ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqot oldiga “Malla savdogar” dostoni variantlarida Avazxon obrazining syujetdagi o‘rni va funksional ahamiyatini aniqlash, safar motivining mazmuni, badiiy vazifasi va ramziy talqinlarini tahlil qilish, vaqt kultining dostonidagi mifopoetik ko‘rinishlari va semantik qatlamlarini ochib berish, safar motivi va vaqt kultining o‘zaro bog‘liqligini doston variantlari misolida qiyosiy tahlil qilish, olingan ilmiy xulosalar asosida mavzuning folklorshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyatini belgilash **vazifalar** qo‘yildi.

Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek folklori dostonlaridagi mifologik tafakkur, motivlar tizimi va obrazlar semantikasini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi kutiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbek folklorshunosligida dostonlarni motiv, obraz va mifologik qatlamlar asosida o‘rganish an‘anasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil rivojlanib kelmoqda. Xususan, xalq dostonlaridagi syujet motivlari, qahramonlar faoliyati hamda ularning ramziy-ma‘naviy mazmuni ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda muhim tadqiqot obyekti sifatida qaralgan.

O‘zbek dostonchiligi va epik asarlar nazariyasini tadqiq etishda M.Afzalov, H.Zarifov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, Sh.Turdimov kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida dostonlarning variantlilik, syujet barqarorligi va obrazlar tizimi masalalari yoritilgan bo‘lib, bu jihatlar “Malla savdogar” dostoni variantlarini tahlil qilishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Safar motivi folklor asarlarida qahramonning shakllanishi, sinovdan o‘tishi va ma‘naviy kamolotini ifodalovchi universal motiv sifatida qaraladi. Ushbu motivning mifologik va ramziy xususiyatlari rus folklorshunoslari V.Propp, E.Meletinskiy, B.Putilov tadqiqotlarida keng tahlil qilingan. Ayniqsa, V.Proppning “Sehrli ertaklar morfologiyasi” asarida safar motivi qahramon harakatining asosiy funksional bosqichi sifatida talqin qilinadi. Bu nazariy yondashuv Avazxon obrazi bilan bog‘liq safar motivining strukturaviy tahlilida muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Vaqt kulti va mifologik vaqt tushunchasi esa E.Kassirer, M.Eliade, Yu.Lotman kabi olimlarning tadqiqotlarida chuqur tahlil etilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, mifologik tafakkurda vaqt chiziqli emas, balki davriy, muqaddas va taqdir bilan bog‘liq hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu nazariy konsepsiyalar “Malla savdogar” dostoni variantlarida vaqtning sinov, bashorat va qahramon taqdirini belgilovchi omil sifatidagi talqinini ochib berishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Malla savdogar” dostoni variantlarida Avazxon obrazi bilan bevosita bog‘liq safar motivi va vaqt kultining o‘zaro aloqadorligi masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Asosan, ushbu motivlar umumiy syujet doirasida qisqacha yoritilgan bo‘lib, ularning ramziy va mifopoetik qatlamlari chuqur tahlil qilinmagan. Mazkur holat tanlangan mavzuning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonida folklorshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarida keng qo‘llaniladigan **tavsifiy-tahliliy metod** — “Malla savdogar” dostoni variantlarida Avazxon obrazi, safar motivi va vaqt kultining badiiy xususiyatlarini tavsiflash va tahlil qilishda qo‘llanildi, **qiyosiy-tipologik metod** — doston variantlarida safar motivi va vaqt tasavvurlarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashda foydalanildi, **strukturaviy-semantik metod** — safar motivi va vaqt kultining syujetdagi funksiyasi hamda ramziy ma‘nolarini ochib berishga xizmat qildi, **mifopoetik tahlil metodi** — vaqtning muqaddaslik, davriylik va taqdir bilan bog‘liq mifologik talqinlarini aniqlashda asosiy metod sifatida qo‘llanildi, **tarixiy-funksional metod** — motiv va obrazlarning shakllanishi hamda folklor an‘anasidagi funksional vazifasini yoritishda metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar majmui “Malla savdogar” dostoni variantlarida Avazxon bilan bog‘liq safar motivi va vaqt kultining badiiy-mifologik mohiyatini kompleks tarzda ochib berish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. “Malla savdogar” dostonida syujetlar voqeasini harakatga keltiruvchi safar, yo‘l, yo‘lovchi motivi muhim qirralaridan biri. “Safar motivi” xususan, Avazxonning safari “Malla savdogar” dostonida tasodifiy voqealar zanjiri emas, balki chuqur badiiy-ma‘naviy maqsadlarga xizmat qiladi.

Avazxonning yo‘lga chiqishi, yo‘lovchi sifatida sarguzasht va sinovlardan o‘tishi bir necha asosiy maqsadlarni ko‘zlaydi:

1. Safar – Avazxonni zohiriy va botiniy kamolotiga qo‘yilgan qadam
2. Yo‘l – hayot ostonasi; Avazxon talgan taqdiri, ezgulik va yovuzlik kurashini to‘qnashadigan joyi
3. Yo‘lovchi – harakatdagi inson; Avazxonni zakovati, tajriba izlovchiligi, haqiqat va adolat tadbirini yuzaga chiqarish, sinovlarda matonatini toblash ilmi, g‘oliblik belgisi
4. Manzil – murod nuqtasi, Avazxon umid va oqillikning ma‘naviy nishonasi bo‘y ko‘rsatishi, masadlar ijobati

Dostonda “safari motivi” syujetda sodir bo‘lishi kerak harakat, tanlangan yo‘l muammo tuguniga yechim izlashni o‘taydi, yo‘lovchi esa maqsadga yetish vazifasini bajaradi, manzilga yetgach natija hosil bo‘lganidan darak beradi.

Xalq og‘zaki ijodining kichik janrlaridan maqollarda ham yo‘l tushunchasi inson umri davomida kuzatuv va tajriba sabog‘ini yaqqol namunasi ekanligini anglatadi:

“Yurgan daryo, O‘tirgan bo‘yra”, “Yurgan yo‘l kezar, O‘tirgan yer chizar”, “Yo‘lga chiqsang, yaroqli chiq, Yolg‘iz chiqmay, hamrohli chiq”, Yurgan yo‘ldan topadi, O‘tirgan qaydan topadi” va boshqalar [11].

Inson hayotida “yo‘l” – harakat, taraqqiyot va ma‘naviy izlanish g‘oyalarini ifodalaydi. Badiiy so‘z tasvirida “yo‘l” metaforik ramz. Bu ramz ko‘p qirrali ishoratlarni anglatadi.

Y.V.Cusevaning “Sharqiy slavyanlarning mifopoetk ijodida yo‘l arxitipi” maqolasida “yo‘l” ramzi shunday quyidagicha tushuniladi:

... yo‘l — harakatning o‘zi mustaqil semantik ahamiyatga ega emas; u faqatgina dunyoning “o‘z” va “begona” makonlarga ikkiyoqlama bo‘linishi mavjud bo‘lgan sharoitdagina ahamiyat kasb etadi. Bu holat sehrli ertaklarda yaqqol aks etadi.

“Harakat hech qachon batafsil tasvirlanmaydi, u doimo ikki-uch so‘z bilan cheklanadi: ‘Uzoq yurdi-mi, qisqa yurdi-mi, yaqinmi, uzoqmi’. Bu formula yo‘l tasviridan ongli ravishda voz kechishni anglatadi. Yo‘l kompozitsiyada mavjud, ammo matnning fakturasida yo‘q. Yo‘lning ikkinchi bosqichi <...> o‘zga podshohlikka olib boradi. U ulkan masofa bilan ajratilgan, biroq bu makon bir lahzada bosib o‘tiladi... Bu yerda ham biz ushbu motivning epik jihatdan ishlab chiqilishidan voz kechilganini ko‘ramiz”[1].

Yo‘l - tanlov va u yengil-og‘ir, xatarsiz-xafli, oson-mushkul, aniq-mavhum bo‘lishi mumkin.

Safar, yo‘l, yo‘lovchi, manzil tushunchalari bilan bog‘liq motivlar nafaqat folklorning nasriy va doston janrlarida, balki o‘zbek mumtoz adabiyotida ham ahamiyat kasb etganini misolda qayd etishimiz mumkin. Jumladan hazrat Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” (Qush tili) asarida safari motivi, asosiy qahramonlar (qushlar)ning ilohiy haqiqatni topish uchun boshlagan allegorik sayohati orqali, so‘fiy tasavvufi va ma‘naviy kamolotga yetishishning ramziy yo‘li sifatida muhim ahamiyat kasb etadi, bu safari ma‘naviy izlanishlar, yo‘l-yo‘riq va o‘z-o‘zini anglash jarayonini ifodalaydi, bu esa Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asariga nazira qilib yozilgan.

Dostonda qushlarning safari 7 vodiy ya‘ni 7 bosqichdan iboratligi. Qushlarning mashaqqati mana shu 7 vodiydan boshlanadi. Birinchi vodiy bu—Talab vodiysi bo‘lib, qushlarning Semurg‘ga intilishlaridagi talab hisoblanadi. Har inson bir ishni boshlashdan oldin unga talab bo‘lmasa yoki ehtiyoj bo‘lmasa uni qilmaydi va nihoyalamaydi. Ikkinchi vodiy – Ishq bo‘lib, unda qushlar Semurg‘ning ishqiga g‘arq bo‘lishadi. Ishq yo‘lida jismdan vos kechish, yor uchun o‘lmoqlikni arziyas deb bilishdir. Uchinchi vodiy – Ma‘rifat vodiysi, bu vodiya kelganlari sari Semurg‘ni taniy boshlaydilar. Allohni tanish, bilish yo‘li har bir inson uchun o‘ziga xos bo‘lib, har qanday yo‘ldan bormasin har birining maqsadi bir- Yaratganni tanishdir. To‘rtinchi vodiy—Istig‘no ya‘ni ehtiyojsizlik vodiysi bo‘lib, qushlarning ehtiyoji va Semurg‘ning ehtiyojsizligi hisoblanib, har bir odam ehtiyojsizlikni anglab yetish zamiri ko‘zda tutilgan. Beshinchi vodiy—Tavhid ya‘ni birlik vodiysidir. Bunda butun olamning birligi faqat Haqligini anglash hisoblanadi. Oltinchi vodiy—Hayrat vodiysi bo‘lib, bunda barcha qushlar

Semurg‘ning ulug‘vorligidan hayratga tushib o‘zligini unitishga ishoradir. Eng so‘nggi vodiy faqr-u fano vodiysi, o‘zlikdan vos kechish Semurg‘ bilan birlashish, abadiylikka qaytish mohiyati mujassam [2].

Safar motivining ma’nosi:

Ma’naviy qidiruv: Safar qushlar (inson ruhi)ning o’z jonini tozalash, Allohga yaqinlashish va haqiqatni kashf qilish yo’lidagi og’ir, ammo zarur sayohatidir.

Qiyinchiliklar va sinovlar: Yo’l davomida duch keladigan turli to’siqlar, “yetti vodiy” (yetti vad), bu ma’naviy kamolotga erishishdagi turli bosqichlar va insoniy illatlarni yengishni anglatadi.

Ramziy ma’no: Qushlar (hudhud, bulbul, o’rdak va boshqalar) turli insoniy xarakterlar va xohishlarni, ularning o’z yo’llaridan qaytishga urinishlarini ifodalaydi.

Nihoyatdagi maqsaddan voz kechish: Sayohat oxirida qushlar o’z “shoh”lari (haqiqiy ma’naviy maqsaddan) voz kechishga va bu dunyoviy narsalardan voz kechish orqali o’zliklarini anglashga o’rgatadi.

“Lison ut-tayr”dagi safar shunchaki jismoniy yo’l emas, balki insonning ilohiy borliqni izlashdagi allegorik, ruhiy sayohatidir.

O’zbek zamonaviy adabiyotida ham “safar motivi” bilan bog’liq nasriy asarlar borligi va bunda folklor uyg’unligi ko’zga tashlanadi. “Safar motivi” bilan bog’liq miflar falsafasi o’lmasligidan darak beradi. Bunga adib Isajon Sultonning “Manzil” hikoyasini misol qilsa bo’ladi.

Isajon Sultonning “Manzil” hikoyasi zamonaviy o’zbek nasrida safar motivi asosida qurilgan, chuqur ramziy va mifopoetik qatlamlarga ega asarlardan biri hisoblanadi. Asarda safar nafaqat syujetni harakatga keltiruvchi omil, balki inson umrining ma’naviy-falsafiy modeli sifatida talqin etiladi. Hikoyaning asosiy g’oyaviy yukini aynan safar motivi ko’tarib, u qahramonlarning tashqi harakati bilan bir qatorda, ichki ruhiy kamolot jarayonini ham ifodalaydi.

“...Hikoyadagi ma’no va tuyg’u haybatlari jihatiga iste’dodli yozuvchi va olim Ulug’bek Hamdam shunday ta’rif bergan edi: “Manzil” – yuki benihoya og’ir hikoya... U boshdan-oyoq ramz asosiga qurilgan. Hikoyada safar – go’yo inson umribo’lsa, yo’lda uchraydigan gulzor-u cho’llar – hayotning shodligi-yu g’am tashvishiga o’xshaydi. Manzil – sarob, negaki u orzulardan barpo etilgan bino...” [3].

“...Manzil sari ketishar ekan, xuddi xalq ertak va dostonlaridagi kabi hikoya qahramonlari ham tog’lar, vohalar, sahrolarni bosib o’tishadi.

Xuddi folklor janrlaridagi kabi mazkur hikoyada ham tog’ “inson oyog’i yetmaydigan, faqat tanlangan shaxslar yoki mifologik personajlar yordamida borish mumkin bo’lgan epik makon” sifatida talqin qilinadi.

Hikoyada inson umrining qisqaligi, ushalmagan, bajarilmagan yumushlarning, g’oyalarning amaliy ifodasi avlodlar tomonidan bajarilishiga ramziy ishoralar beriladi. “Manzil” boshdan oyoq ramz asosiga qurilgan [4].

Isajon Sulton safar motivi orqali inson va umr, maqsad va manzil, orzu va haqiqat o’rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy-falsafiy darajada ochib beradi. Bu esa hikoyaning nafaqat badiiy, balki konseptual qiymatini ham belgilaydi.

Avazxonni safari bilan bog’liq sarguzashtlar ko’lamli bayon etilganini ko’ramiz. Dostonda Avazxonni safari Chambil eliga erkak libosida xat-xabarchi keltirgan qiz bilan bog’liq holda boshlanadi.

Baxshi Jo’ra Eshmirza variantidagi safar motivi:

“...kunjutu sunjutu degancha Avazning rabotiga yetib keldi. Po’lat darvozasini shunday qaradi. Qiz bir zum rabot ichini kuzatadi,. So’ngra, qamchi dasti bilan darvozani urdi. Oy Juzumko’z eshitib, Avazni norday boshini takiyaning ustiga qo’yib, avaylab bo’sag’aga kelib, darvozaga kelib turgan mehmonning qorasini ko’rib, qaytib joyiga Avazni uyg’otadi.

Tog’ boshida to’qqiz taram,
 Sumbul sochim o’ram-o’ram,
 Mard yigitga uyqu harom,
 Amaling sulton bokaram.

 Shodiyondan sharra shamol turadi,
 Boy ko ppak qora ko’rmay huradi,
 Joyingizdan turing , bek to’ram,

Darvozani birov tiq-tiq uradi [5]

Uyqusi buzilgan Avazxon Jo‘zumko‘zni o‘ldirmoqqa tahdid qiladi. Jo‘zumko‘z esa ikki bolasini o‘rtasiga kelib, “Otang o‘ldirmoqqa ixtiyor qildi, Bergan sutimdan rozi bo‘ldim” deb turganda, Avazxon hushyor tortib, darvoza taqillatgan kimsani bilmoq uchun darvoza tomon boradi.

Mehmon Avazxonni qarab :

Eshik oldi non terak,
Yaxshi barchaga kerak,
Qo‘sh xaltada qo‘sharoq,
O‘zingni asli so‘rasa,
Bir baytallik badiroq.

.....
Beklar minadi yo‘rg‘ani,
Qushlar quvadi qarg‘ani,
Nalat senga, Rahmat izga,
Bir baytallik tubdan kelgan armani.
Shu gapni aytib mehmon
Otinining belini burdi.

– Hisorning boshi Qo‘lob,
Qizlar qo‘ygan o‘sma, lolab,
Bu gaplarni aytasan yelkalab,
Qatorida qora nori,

Erisin tog‘larning qori,
Yozilsin gapning daftari,
To‘xta joyingdan modaxar,
Bilgin men Chambil shunqori.

.....
Darvozani qulfin silkib otdi,
Iziga burilib Avazxon
Minib chiqdi Majnun otdi.

Avazxon Majnun ot bilan bir maydon quvlab, ot boshida banot to‘rvasi, to‘rvasini bosib yiqildi. Ot ustidan tushib, otni turg‘izib, to‘rvasini olib uyiga qaytadi. Keyin fonus yoqib saysxonaga boradi. G‘irotni rayini topib, avaylab sabog‘idan tutib, no‘xtasini sayirib tashlab, besh halqa tilla yuganni otning boshiga soldi [5].

.....
Chambilbelni girdi dala,
Buyruq bo‘lsa yog‘di jala,
Ul ustidan solidi
Barxitdan bo‘lgan ko‘rpacha,
G‘irotni qizday bezab,
Qo‘g‘irchoqdayin tuzab,
Otilib necha jazoyil,
Mard ishiga barcha qoyil,
Otning beliga aylandi,
Olti quloch oq ayil,
Otlar yugurar eshikdan,
Duo tilar darveshdan,
Jonivorning kami yo‘q,
Yugurishman, yelishdan,
Chin, sidqidil yugursa,

O'tadi qanotli qushdan, [5]

.....

G'irotni sozlab Avazxon uyiga borib, tahorat olib, ikki rakat namoz o'qib, Xudoning dargohiga bag'ishlab, yo'l tadorigini ko'radi. Safar uchun kerakli anjomlarini tayyorlab, yo'lga shaylanadi [5].

.....

Barchani xol qilgan qodir Xudoyim,
Otin maydoni aro cho 'lda yelganlar.
Egriyon olmosni belga cholganlar,
Sahar choq tebranib joydan turganlar,
Aylang rahm mening ohu zorimga,

Qulli qum yerga to'g' ko'targan eranlar. – deya pirlariga sig'inib, G'irotni tavsiflab safarga otlanadi [5].

“Polopon tog'dan beri, Sulduz tog'dan nari – ikkovining o'rtasida o'n to'rt o'rim sumbil sochini kiotiga yozib tashlab, qalpoqni xiyobon boshiga qo'yib, to'qqiz shabro'zlik yo'ldan qizning qorasini ko'rdi. Ana shunda Avazxon durbinni kissasiga solib, kar jilovini qo'lga olib, Paraxat tovdan, Keragas zovdan G'irotga jabr qilib, alang-alangdan oshib, salqin daryoday toshib, kesar kalla xumday shishib, o'lmasdan botir Avazxon, ketdi Asqardan narmon tomon.

.....

Yo Ali deb, oshib borar
To'g'ri kelgan gazadan.
Yigirma beshda o'lsa yigit,
Yori kutimas azadan.
Tevargasi tirqillab.
Naqshin uzangasi shirqillab,
Meshkoplarda olgan suvi
Ot chopganda chilqilab,
Ot chopganda obdan nayza
Tor xumchaday so'lqillab
Jovrinida kark qalqon
Kun tekkanda yarqillab, [5]

.....

Olis qolib Chambil qorasi,
Changiydi tog'ning darasi,
To'qqiz shabro'z ot chopdi,
O'lmasin Go'ro'g'lining bolasi. [5]

Avazxon qizga yetgach, do'q-siyosat qiladi:

Avazxon qizga yetgach ular o'rtasidagi diaologda Avazxonni g'ururli do'q-pupisasi, qizning kesatiq dialoglarida safar maqasini belgilaydi:

.....

Ayt kalimangni bachchag'ar,
Otingni o'lja olib,
Qirq uruv turkman eliga
O'zingni qilarman cho 'ri. [5]

.....

Changitarman maydon-dashni,
Ko'zdan to'kib selob yoshni.
Mening ham otim qo'ymaydi
Osmunda qanotli qushni
O'ylasaak ham dunyo o'tdi

Qiz javobi :

– Holingni bilib gapirgin,
Olti yoshda ot keti bo ‘b kelgan
Bir baytallik turkman quli.

.....
Senga tozadan bildiray o‘zimni
Bog‘dod mamlakatining xipcha beliman,
Ana, armonda qolma, Avazxon, deb
Otiga bir qamchi torti.

Ana shu palla oyday botdi, necha guzardan oshib, kesar kalla xumday shishib, qiz ketdi shunday qutulib, Avazxon qoldi adashib, ikki ko‘zi g‘uborlanib, guyo bir shabro‘zgacha odamdan aqlli G‘irot yurar yo‘lin yo‘qotib [5].

Baxshi Chorshabi Rahmatullayev variantidagi safar motivi:

...Avaz deb eshitardim ta‘rifotingdi, kelib ko‘rdim yurtidingdi, bir ko‘rishga to‘xtadim qaddi-qomatingdi. Seni ko‘ray deb ikki Kundan beri shu yerda yotaman, to‘xtamasam, menga yetolmas eding, – dedi.

Shunda Avaz o‘z haqida so‘raydi. Qiz haqoratli gaplar bilan uni jahlini chiqaradi. Avaz g‘azablanib qilichini qindan chiqarayotgan payt to‘zon ko‘tariladi. Qiz g‘oyib bo‘ladi. Avaz qizni Bog‘dodga yetishida bir kunlik yo‘l qolgani, erta-indin yetib borishi, qizni topishga amin bo‘ladi [6]

Baxshi Shoberdi Boltayev variant:

Shunday darbozaga borsa, mehmon kelganday, darbozani ochsa, ko‘pkarida taqimidan uloqdi yulib ketgan qiz.

Shunda Guloyim:

–Ho‘ Avaz, sening sening mamlakatingday 39 mamlaktga katta xabar berdim, sening eling bilan 40 ta bo‘ldi. Mening elimga borasan, 3 ta shartim bor, shu shartimdi qilsang, tanimni taningga bir qoshiq suv bilan bag‘ishladim. Oy nechasi-nechasi, ot haydadim oy qorong‘u kechasi, uch shartimni qilasanmi, Chambilding qul bachchasi? – deb ko‘zdan g‘oyib bo‘b ketdi.

Uloqdi tortib olganing yetmaganday, bu gaping “ustamchaga bismacha” bo‘ldi deb Avazxon shoshganidan Majno‘nko‘kni to‘rbasi bilan minib, izidan quvib ketdi. Majnunko‘k to‘rvaga, so‘rinib Avaz ustidan otilib ketdi.

–Seni bilan mehmon qizning orqasidan quvamanmi? – deb Avazxon qo‘rg‘oniga keldi.

Avazxon G‘irotni qaytadan tabladan yetalab kelib, gulhovuz, sarhovuzda yuvdirib oldi. Ana qarang, hulkar qiblagaga botdi, soruv berib tong otdi, egarladi. G‘irotni, ko‘ring endi Avazday mardni, dubulg‘a kiydi boshiga, chorandoz tortdi to‘shiga, odamga hamla qilsa qirq gaz bo‘ladigan qilichni qo‘liga tutdi, Guloyimni izidan jo‘nab ketdi [6].

.....
Olti bo‘ldi orasi,
Changida cho‘lning darasi,
Ot bilan quvib boradi
Chabil elning to‘rasi.

Ko‘zini ochib qaraydi,
Ko‘rinmaydi juvarmakning qorasi,
Quvib yetsam, bitama
Yurakding yarasi?
Jetkin deymen, jonivor,
Sulton otamding nurli yuz, [6]

Baxshi Abdunazar Poyonov variant:

Avazxon qarasa, kechagi ko‘pkarida taqimidan takani tortib olgan chobag‘on mehmon turganini ko‘rdi. Shunda haligi mehmon Avaz bilan so‘rashib, ey Avazxon, aslida, men xabarchiman, yurtimni

Misr deydi. Misr shohi Shohdorshohning qiziman, otim Malikai Ruxsor, qirq shaharga chopar jo'natdim, ammo Chambilga o'zim keldim, yoshim yigirmada bo'ldi, otam mening sha'nimga to'y beryapti, yetmish ikki mamlakatdan mehmon keladi, to'yda ikki shartim bor, biri ko'pkari poyga, ikkinchisi polvonlar kurashi, otamning ham bir polvoni bor, meni o'sha polvonga bermoqchi, polvonning oti Qoralong deydi, o'sha polvonni kim bossa, shunga tegaman, yuragingda o'ting bo'lsa, izimdan bor, bo'lmasa o'zing bilasan deb quloqchin telpagini boshidan oldi. Qizning o'n to'rt taram sochi otning sovrisinga tushib ketdi, uchi yerga borib yetdi. Buni ko'rib Avaz aqli shoshib, yurar yo'ldan adashib, Gulruxsor parining o'n besh kunlik oday jamoliga ko'zi tushib, esi ketib, qulog'i bitib, og'zi angrayib, burin tangrayib, bo'yi serayib darvozadan tashqariga chiqdi, shu payt qiz otiga qamchi chotdi, ostidagi oti xuddi yashinday uchib ketdi.

Avazxon darhol G'irotning tablasiga yetdi, uyqli ko'zi bilan G'irotni deb bilmasdan Tablada turgan Majnunko'kning beliga joydoq minib olib, otni qistab qiz ketgan tomonga izidanquvib jo'nadi. Shoshganidan uyqusirab Majnunko'kning boshidan to'rvasini ham olmagan ekan. Jonivor Majnunko'k ot to'rvasiga surinib kulaband bo'lib yiqildi. Avazxon ustidan otilib ketdi. Joyidan qarasa, Majnunko'kni minib chiqqan ekan. Shunda Avazxon hay, attang-a, shu egang o'lgurni G'irotni tablasiga kim bog'ladi ekan deb otni turg'azib, minib iziga qaytdi. Uyiga kelib, botirlik kiyimlarini kiyib, qilichini bog'lab yonboshiga, qarang mardning ishiga, choroyna tortib to'shiga, Majnunko'kni tablaga bo'lab, keldi G'irotning qoshiga. G'irotning jilovini ushlab, ko'nlini nishlab, qizning qilig'i yuragini g'ashlabm otning egar-abzallarini ustiga tashlab G'irotni sozlab turgan chog'i ekan:

Bu qizning qilig'i ko'ngil g'ashladi,
Nayzadayin yuragimni nishladi, [6]

.....

...Avazxon dol G'irotni beliga minib burgutday do'nib, ichi o'tday yonib, qamchi chotib, malika Ruxsorning izidan tushib, Chambildan chiqib ketayotgan chog'i:

.....

Shuncha alam ko'rdim-a,
Misr elining qizidan,
Mard qaytmaydi izidan,
Og'zidan hiqqan lafzidan.

.....

G'irotning shamoliga,
Toshlar uchar g'irillab,
Baland tog'ning darasi
Tovush berar dorillab. [6.]

Doston variantlaridagi safar motivi o'xshash, syujetlardagi qiz timsoli Avazxonni safarga chorlash, yo'da sodir bo'ladigan kechinmalarini oddiy yo'lovchi emas, balki jur'at bilan amlga oshiriladigan amallarni boshidan o'tkazish lozim etiladi.

Ko'rib chiqilgan variantlarda: 1) xat-xabarchi qiz Oydon, 2) xat-xabarchi qiz Oyxumor, 3) Guloyim – ko'pkarida uloqni olibqni olib qochgan erkak libosidagi chavandoz 4) Gulruxsor – ko'pkarida uloqni olib qochgan erkak libosidagi chavandoz

- 1) Oydon – Bog'dod podshohi Shosapit qizi malika Oyzaynabni ishonchli kanizi
- 2) Oyxumor – Bog'dod podshohii Shahanshoh qizi malika Zulfizar kanizi
- 3) Guloyim – malika Qoraxon podshohning qizi
- 4) Gulruxsor – malika Misr shohi Shohdorshoh qizi

Bu personajlar Avazxonni "safar motivi"ni yuzaga keltiradi. Safardan maqsadini belgilaydi.

Dostonning "safar motivi" da "vaqt kulti"ga bog'liq tushunchasi tadqiqod ob'yekti sifatida ahamiyatli.

Vaqt inson mavjudligining asosiy jihati bo'lib, kundalik hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlar madaniyatlarida vaqtga turlicha yondashuvlar va nuqtai nazarlar mavjud bo'lib ular bir-biridan farq qiladi, bu ushbu, madaniyatlar aro munosabatlarga va xattiharakatlariga katta ta'sir ko'rsatadi [1]. Vaqt kontseptsiyasidagi madaniy tafovutlar bilan bir qatorda, turli

madaniyatlarda vaqtni qanday qabul qilish va boshdan kechirishda ham farqlarmavjud. Vaqtni idrok etish insonning vaqt haqidagi psixologik va kognitiv tushunchasini o'z ichiga oladi, unga madaniy me'yorlar va amaliyotlar ta'sir qilishi mumkin. [7]

“Vaqt konsepti universal konseptlar sirasiga kiradi. U deyarli barcha tillarda mavjud bo‘lgan “birlamchi” konseptlardan biridir”. Darhaqiqat, vaqt butun insoniyat uchun umumiy hodisadir. Vaqt inson hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Vaqt ko‘zga ko‘rinmaydigan hodisa bo‘lsa-da, butun insoniyatni bo‘ysundirib kelayotgan bu kuchni na ko‘z bilan ko‘rish, na uni ortga qaytarish mumkin. U hech kimga bo‘ysunmaydigan qudratga ega.

Umuman olganda, vaqt kategoriyasini o‘rganish qadim zamonlardan boshlangan. Mashhur mutafakkir Aristotelning ta’kidlashicha: “Bizni o‘rab turgan tabiatdagi eng noma’lum narsalardan biri – bu vaqtdir. Vaqt nima, uni qanday boshqarish mumkin – buni hech kim bilmaydi”, –deydi u. Aristotel vaqt haqidagi qarashlarini “vaqt harakat bilan chambarchas bog‘liq, ammo ular aynan bir narsa emas” degan xulosaga keltiradi [8].

Mifda vaqt kulti:

V.Yu.Kuznesovning “Vaqt mifologiyasi” maqolasida bayon qilingan vaqt kultiga oid qarashlar iqtibos keltiramiz:

Ramz – muayyan ideal shaklni ifodalashga xizmat qiluvchi sezgi belgilarining yig‘indisidir. Ushbu konsepsiyada mifning barcha madaniyat shakllari asosida yotuvchi fundamental xarakteri alohida ta’kidlanadi. Mif ong faoliyatining shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Mifologik vaqt mifologik ongning ramziy obyektivlashuvining dastlabki shakli sifatida yuzaga chiqadi. Aynan vaqtning shakllanishi dunyo va uning obrazlarining dinamikligini belgilaydi. Vaqtni o‘zlashtirish subyektiv hayot shakllaridan tabiatning obyektiv intuitiv tasavvurlariga tomon rivojlanadi.

Ibtidoiy-mifologik ongning alohida qatlamini vaqt kulti tashkil etadi. Vaqt kultining tashuvchilari sifatida “taqvim xudolari” (Osiris, Dionis va boshqalar), vaqt uchun “mas’ul” bo‘lgan yoki vaqt bilan bog‘langan xudolar (masalan, Xronos yoki Yanus – bir yuzi o‘tmishga, ikkinchisi kelajakka qaratilgan), shuningdek, inson hayoti va taqdiri vaqtini belgilovchi quyi darajadagi ilohiy mavjudotlar (yunonlarda moyralar, rimliklarda parcalar) namoyon bo‘lgan. “Vaqt kulti turli shakllarda namoyon bo‘lgan: abadiylik, asrlar, fasllar ko‘rinishida...

...E.M. Meletinskiy tadqiqotlariga tayangan holda vaqtga oid uch turdagi miflarni ajratish mumkin: o‘tmish, hozirgi zamon va kelajakka oid miflar. Birinchi guruh– o‘tmishga oid miflar – eng ko‘p uchraydi va bir necha toifani o‘z ichiga oladi. Avvalo, bu etiologik (ya’ni “sababiy”, tushuntiruvchi) miflar bo‘lib, ular turli tabiiy va madaniy xususiyatlar hamda ijtimoiy obyektlarning kelib chiqishini izohlaydi. Keyingi guruh – kosmogonik miflar bo‘lib, ular koinotning va uning yagona tizimdagi qismlarining yaratilishini hikoya qiladi. Kosmogonik miflarning tarkibiy qismi sifatida antropologik miflar — insonning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar ham mavjud. Bu miflarning barchasi “boshlang‘ich”, yaratuvchi mifologik vaqtga taalluqlidir.

Deyarli barcha xalqlarning mifologiyasida muhim o‘rin egallagan yagona doimiy unsur — ibtidoiy yaratilish haqidagi (etiologik va antropologik) miflardir.

... Biroq vaqt kulti ayniqsa kuchli rivojlangan mifologik tizimlar ham mavjud bo‘lgan. A.N. Chanyshev qayd etganidek: “Qadimgi misrliklar vaqt tuyg‘usi juda yaxshi rivojlangan xalq bo‘lgan”.

Masalan, Vavilon mifologiyasidagi Ishtar va Tammuz haqidagi rivoyatlarga Qadimgi Misrda Isida va Osiris haqidagi mif mos keladi. Osiris hayot va o‘limning timsoli bo‘lib, Misrda barcha tiriklik manbai bo‘lgan Nilni ifodalagan, shu bilan birga u o‘liklar olamida hakam vazifasini bajargan.

Mifologiyaning navbatdagi muhim jihati — olamning ko‘p darajali modeli (Osmon, Yer, Tartar) hisoblanadi. Olamning har bir darajasi uchun go‘yoki o‘ziga xos vaqt mavjud bo‘lib, u ritmika, davomiylik va boshqa tushunchalar bilan farqlanadi. Agar inson tanasi kundalik, ya’ni yeri vaqtga bo‘ysunib yashasa, uning ruhi boshqa — muqaddas (sakral) vaqtda mavjud bo‘ladi. O‘lim bilan inson ruhi yo‘qolmaydi, balki yangi tug‘ilgan chaqaloqda qayta mujassamlanadi. Shu bilan bolalarni vafot etgan ajdodlar nomi bilan atash an’anasi bog‘liq bo‘lib, bu urf-odat hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Bu shunchaki o‘tmishga hurmat emas, balki hayotning chuqur ma’nosini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, uning ildizlari mifologik dunyoqarashga borib taqaladi.

... Inson hayoti kundalik vaqt doirasida cheklangan bo‘lib, u o‘lim bilan yakunlanadi. V.G. Bogoraz-Tan fikricha: “Ibtidoiy inson uchun o‘lim hali mavjud emas yoki agar mavjud bo‘lsa ham, u tabiiy o‘lim emas, balki tasodifiy, zo‘ravonlik bilan bog‘liq hodisadir”.

...Gilgamesh dostoni inson hayoti va o‘limi muammosining antropologik va fojiali mohiyatini chuqur yoritadi. Inson xudolarning boqiyiligi va olamning abadiyligi fonida o‘zining nihoyaviyligini anglaydi. Gilgameshning beqaror fe‘l-atvori o‘zining o‘limli ekanini anglash bilan jilovlanadi, biroq u faoliyatdan voz kechmaydi. U shahrini obod qilishga kirishadi. Unda insonning boqiyiligi uning amallarida va ijodida namoyon bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikr tug‘iladi.

Ibtidoiy inson hatto ancha kechki animizm bosqichida ham tabiiy o‘limni tan olishni istamagan. Inson tabiatining faol mohiyati bo‘shliqni, mavjudlikdan yo‘qlikka tabiiy o‘tishni inkor etadi; uning tasavvurida o‘lim — bu qotillikdir. Turli xalqlarning folklorida kuchli odam O‘limni yengani, uni asirga olgani, xaltaga solib osib qo‘ygani yoki aldab eman yog‘ochining yorig‘iga qo‘lini tiqdirib, so‘ngra xanjar bilan qisib qo‘ygani haqidagi hikoyalar ko‘p uchraydi. Masalan, chuvash xalq ertagi “Chol va O‘lim”da chol O‘limni ayyorlik bilan tobutga qamab qo‘yadi. Shundan so‘ng u uzoq yashaydi, O‘lim esa odamlar orasida ko‘rinmay qo‘yadi [9].

Ibtido va intiho orasidagi kechayotgan zamon, vaqt mohiyati inson umri uchun ahamiyatli ekanligi anglanadi: “Vaqt ketdi - baxt ketdi, Toji sari taxt ketdi”, “Vaqillagan vaqtni o‘tkazar, Qo‘lidan naqdni ketkazar”, “Vaqt aqchadur, G‘ofil bo‘lma, qochadur”, “O‘tgan vaqt yo‘qolgan oltindan qimmat”, “Vaqt tog‘ni yemirar, Suv toshni kemirar”, “Vaqt – g‘animat, O‘tsa – nadomat” va hokozo [11].

“Vaqt” konsepti — dunyoning milliy manzarasini ochib beruvchi muhim konseptlardan biridir. Uni o‘rganish xalqimizning folklor tafakkuri haqidagi bilimlarni boyitadi [8].

Olimlarimiz: “Vaqt hayotdir. Inson hayoti esa uning tug‘ilgan vaqtidan toki vafot etgunicha yashab o‘tadigan vaqtidir. Eng yaxshi vaqt, hayotini manfaatli ishlar bilan to‘ldirgan odamdir”, deganlar.

Hasan Basriy hazratlari shunday degan ekanlar: “Ey odam bolasi, sen tashkil topgan kunlardan iboratsan. Sen uchun bir kuningni ketishi, umringni bir qismi ketishi demakdir”.

Bu yorug‘ dunyoda inson umri qanchalik uzun bo‘lmasin, modomiki o‘lim har tiriklikning nihoyasi ekan, baribir u qisqadir.

Nuh alayhissalom ming yildan ortiqroq umr ko‘rganlaridan keyin u kishini jonlarini olish uchun o‘lim farishtasi kelib: “Ey payg‘ambarlarning eng uzun umr ko‘rgani, siz dunyoni qanday tushundingiz?”, deb so‘radi. Shunda Nuh alayhissalom: “Bu dunyo go‘yoki bir hovlining ikki eshigi bo‘lib, ularning biridan kirib, boshqasidan chiqib ketdim”, degan ekanlar [10].

Dostondagi safar motivi va vaqt kulti nainki mifologik mohiyat balki “Qur‘on”ning 103-surasi, 3 oyatdan iborat “Asr” surasi bilan qiyosiy talqin etilganida musulmon odamining umr safarining harakati va vaqtning qadri ayon bo‘ladi;

“...Asr surasi, Qur‘onda eng qisqa suralardan bo‘lishiga qaramay, uning mazmuni juda boy va chuqur. Bu sura, insoniyatga vaqtni qadrlashni o‘rgatadi. Har bir inson uchun vaqt – bu juda qimmatli ne‘matdir. Uni to‘g‘ri sarflash, hayotdagi har bir daqiqani foydali va maqsadga muvofiq ishlarga bag‘ishlash zarur. Suraning mazmuni insonni yaxshilikka undaydi. Yaxshi amallar, sabr-toqat, haqiqatni aytish, o‘zini rivojlantirish va boshqalarga yordam berish, har bir insonning asosiy burchidir. Faqat shunday yo‘l bilan inson haqiqiy baxtga erishishi mumkin [12]. Qur‘oni karimdagi Asr surasi vaqt fenomeniga yuksak metafizik baho beradi:

Avazxonni safar motivi va “Asr” surasi o‘rtasidagi g‘oyaviy paralellizm shundaki; safar – inson umrining modeli; safarga chiqqanda; no‘malumlik, xavf, sabr va irodagaga ro‘baru kelishi; epik shaklda vaqt kultidagi yo‘ldan toqatli va iymoni mustahkam, jumard musulmon yo‘lovchi kabi ish tutishi, alal oqibat “Asr” surasi oyatida inobatga olingan ya‘ni vaqt Ichida insonning axloqiy-kamolotga yetish yo‘li sifatida talqin qilinadi. Demak, dostondagi safar motivining vaqt kulti shunchaki hodisa emas, balki Avazxonning ma‘naviy yuksalish mezoni sifatida ko‘rilishi lozim.

“Malla savdogar” dostonida vaqt mohiyati:

1) Avazxonni “safari vaqti” shunchaki sayohat yoki oddiy makon almashuvi emas, balki u vaqt sinovini kechishi kerak

2) Safari chog‘i uni “yo‘l vaqti”da duch keladigan taqdir sinovlari, g‘iromsiz, halol kurashib, matonatli qahramonga aylantiradi.

3) Safarda “yo‘lovchi vaqti”da uzoq masofalar, g‘ayritabiiy hodisalar, keskin burilishlarda yuzlashish
 4) So‘ngra “manzil vaqti”da harakat natijalarini belgilaydi. To‘g‘rilik, ezgulik, adolat, haqiqat, yetuklik kabi maqomini ko‘tarish hisoblanishi

Xulosaga ko‘ra dostonidagi safar motivi va vaqt kulti, Avazxonning safar jarayonidagi qat‘iyatligi, elini taqdiri, oilasini sha‘ni himoya qilishi, yo‘lda ro‘y beradigan sinovlardan “oqil yo‘lovchi” sifatida o‘ta olgani gavdalanadi. Yana bir jihati u vaqt muvozanatida o‘zligini topishi ham ahamiyatlidir.

XULOSA. Mazkur tadqiqot “Malla savdogar” dostoni variantlarida Avazxon obrazi bilan bog‘liq safar motivi va vaqt kultining badiiy-mifologik mohiyatini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida doston variantlarining syujet tuzilishi, obrazlar tizimi hamda mifopoetik qatlamlari kompleks tahlil qilinib, safar motivi va vaqt tushunchasining o‘zaro uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritildi.

Tahlillar natijasida Avazxon obrazi dostonida faqat harakatdagi qahramon sifatida emas, balki sinovlardan o‘tuvchi, ma‘naviy kamolot sari yetaklanuvchi ramziy obraz sifatida talqin etilishi aniqlandi. Uning safarlari oddiy makon almashinuvi bilan cheklanmay, ijtimoiy, ma‘naviy va mifologik makonlarni bosib o‘tish jarayonini ifodalaydi. Safar motivi Avazxonning ichki yetilishi, taqdir bilan yuzlashuvi va qahramonlik maqomiga erishishida muhim syujet vazifasini bajaradi.

Tadqiqotda vaqt kultining “Malla savdogar” dostoni variantlarida muqaddas, davriy va taqdiri mazmunda namoyon bo‘lishi asoslab berildi. Vaqt voqealar ketma-ketligini belgilovchi omil bo‘lish bilan birga, qahramon sinovlarining muayyan bosqichlarda sodir bo‘lishini ta‘minlovchi mifologik tushuncha sifatida talqin qilinadi. Dostonidagi muayyan vaqt belgilarining takrorlanishi va ramziy xarakteri xalqning qadimiy kosmogonik va mifologik tasavvurlarini aks ettiradi.

Safar motivi va vaqt kultining o‘zaro bog‘liqligi Avazxon obrazi misolida yaqqol namoyon bo‘ldi. Qahramon safarlarining boshlanishi, davom etishi va yakuni muayyan vaqt chegaralari va mifologik davriylik bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlanadi. Bu holat dostonida makon va vaqt birligi tamoyilining ustuvorligini ko‘rsatadi hamda syujet dinamikasining mifopoetik asosini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari “Malla savdogar” dostoni variantlarini motivlar tizimi nuqtayi nazaridan o‘rganishda yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi. Xususan, Avazxon bilan bog‘liq safar motivi va vaqt kultining kompleks tahlili o‘zbek folklori dostonlaridagi mifologik tafakkur, ramziy obrazlar va epik an‘analarning yanada chuqurroq anglanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari folklorshunoslikda dostonlarni mifopoetik va semantik jihatdan o‘rganishga oid ilmiy izlanishlarni boyitadi hamda o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi epik tafakkur va motivlar tizimini tadqiq etishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- [1] Е.В.Гусева “Архетип дороги в мифопоэтическом творчестве восточных славян”. Сайт Муромский историко-художественный музей, 1998-2016, дата обновления: 31-08-2016 г.
- [2] Anvarova Sarvinoz Axadxjon qizi “Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi ramziy obrazlar talqini” maqolasi, Journal of iqro-jurnal iqro -iqro jurnali -volume 9, issue 2, 2024 ISSN: 2181-4341, impact factor (research bib) -7, 245 SJIF5,431 www.wordlyknowledge.uz ilmiy metodik jurnal
- [3] Kamolova Nazokat Saidjonova “Isajon Sulton “Manzil” hikoyasidagi ramzlar tahlili” maqolasi. “Pedacocs” international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 www.pedagoglar.uz Volume-84 8, Issue-2, April – 2022. 84-bet.
- [4] Kurbanova Feruza A‘zamovna “Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifopoetik talqin” (Avtorefirat) Farg‘ona 2023-yil. 36-bet.
- [5] Nurali (dostonlar) Malla savdogar dostoni. Jo‘ra Eshmirza o‘g‘li variant. T. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989-yil. 308-309-b, 310-311-312-314-315-316-317-b.
- [6] Malla savdogar dostoni. T. “Akademnashr”, 2019-yil. 41-42-b, 200-201-b, 211-b, 284-285, 287-288-b,

- [7] Marimbayeva Surayyo Umarbek qizi “Turli madaniyatlarda vaqt tushunchasi bo‘lgan yondashuvlar” maqolasi
- [8] Б.Кулынтаева, Г. Гулсевин2 “Уақыт” концептісінің циклдык моделі (тарихи жыр мәтіндері негізінде) Ясауи университетінің хабаршысы, No3 (125), 2022ISSN-p 2306-7365ISSN-e 2664-068659ӨЖ398. 87: 821. 512; МҒТАР 16.21.07 <https://doi.org/10.47526/2022-3/2664-0686.05>
- [9] В.Ю.Кузнецов. Мифолгическое время. Кибр Ленинка.2006 год.
- [10] Nodir Madiyev “Vaqt qadri” maqolasi.Naqshband.uz sayti.5 fevral, 2017-yil.// Qur’oni karim kitobi. Asr oyati.
- [11] “O‘zbek xalq maqollari” T. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005-yil. Ziyoz.uz sayti. 16 oktyabr, 2013.
- [12] Fayzilaxon Xo‘janiyozova, “Asr surasining ma’nosi” maqolasi. Jubborkalon.uz sayti. 22.04.2025.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000